

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'zbek filologiyasi** *fakulteti*

**O'zbek tilshunosligi** *kafedrası*

# **REFERAT**

**MAVZU: UNLI VA UNDOSH FONEMALAR  
TARAQQIYOTI**

Bajardi: 304-guruh talabasi  
Elmurodova N.

Ilmiy rahbar: Mahmadiyev Sh.

SAMARQAND - 2013

***Mavzu: Unli va undosh fonemalar taraqqiyoti***

***Reja:***

***I. Kirish.***

***II. Asosiy qism.***

***1. Tarixiy fonetika haqida ma'lumo***

***2. Tilimiz tarixidagi unlilar va ularning taraqqiyoti***

***3. Tarixiy fonetikadagi undoshlar va ularning taraqqiyoti.***

***III. Xulosa.***

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin har bir sohada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Avvalo, yoshlarning mukammal bilim olishlari, hayotda o'z o'rinlarini topishlari, mamlakatimizning mustaqilligini mustahkamlashga, yurtimiz farovonligini ta'minlashga qodir har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning quyidagi so'zlari ham mamlakatimizda ilm-fan sohasiga, yoshlar kelajagiga qaratilayotgan e'tiborning qanchalik darajada yuksakligidan dalolat beradi: "Iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi barcha islohotlarimizning provard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi."<sup>1</sup>

Ana shunday ijobiy, ezgu ishlarni amalga oshirish uchun ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangidan-yangi darsliklar nashr ettirilmoqda. Har bir fanni chuqur o'zlashtirishga imkoniyatlar yaratib berilayotganligi sababli tilshunoslik borasida ham bir qancha ijobiy natijalar qo'lga kiritilyabdi. Jumladan, til tarixi fani ham shular qatorida.

Ana shu bo'limning tarixiy fonetika qismi tilimizdagi tovushlar tizimi, tovushlar tizimining taraqqiyoti, unlilar va undoshlar, ularning o'sha davr tilidagi bir qator o'ziga xosliklari, urg'u va intonatsion xususiyatlar, fonetik hodisa kabilarni o'rganadi. Fonetika tilning qurilish birliklari orasida o'zining o'zgaruvchanligi bilan leksikadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Chunki, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari, tashqi muhit - qo'shni tillar, jamiyat va fan-texnikaning rivoji, yangi-yangi so'zlarning kirib kelishi tilning fonetik qurilishiga tez ta'sir qiladi. Tildagi onda-sonda uchraydigan hodisalar, fonetik variantlar, yonma-yon qo'llanishlar asta-sekin qonuniyatga aylanadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: «Шарқ» нашриёти 1998, 3-бет.

O'zbek tilining turli taraqqiyot davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar, ilmiy va badiiy asarlar tarixiy-fonetik tadqiqot uchun eng asosiy manba vazifasini o'taydi, chunki har bir yozma yodgorlik yaratilgan davr tili o'z aksini topadi.

Tarixiy fonetikaning unlilariga e'tibor bersak, ularning sonini olimlar turlicha beradilar. Qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tilida unlilar singarmonizm qonuniga amal qilgan. Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli tovush bor: a, o, u, **I** unlilari orqa qator; ä, θ, ü, í unlilari esa old qator tovushlardan iborat. Eski turkiy til (XI-XIV asrlar) yozma obidalarida to'qqizta unli tovush: α, ä, ā, e, o, u, ü, I, í va eski o'zbek tili yozma manbalariga arab, fors-tojik so'zlari o'zlashgan, bu so'zlar tarkibidagi unlilar turkiy til qonunlariga moslashgan.<sup>2</sup> Boshqa bir manbada esa "Eski turkiy tilda 8 ta unli fonema uchraydi. Ular quyidagilar: a, ə, o, θ, y, γ, ы, i. Fonemalar eski turkiy tilning gorizntal holatiga ko'ra ikki xil: old qator (til oldi, yumshoq) unlilar: ə, Θ, γ, i; orqa qator ( til orqa, qattiq) unlilar: a, o, y, ы. Tilning vertikal holatiga ko'ra unlilar keng (quyi)- a, ə; o'rta- o, Θ va tor (yuqori)- y, γ, ы, i; labning ishtirokiga ko'ra esa lablangan- o, θ, y, γ va lablanmagan unlilarga – a, ə, ы, i bo'linadi."<sup>3</sup>

Yana bir manbada esa shunday deyiladi: "Navoiy tilida o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" dagi ma'lumotiga ko'ra, to'qqiz unli fonema mavjuddir: i, i:, e, a, ɔ, o, θ, γ, y. " Unlilarning qisqacha o'ziga xosliklari esa quyidagicha: "I" fonemsi qadimgi turkiy tilida va hozirgi jilovchi o'zbek shevalarida ikki mustaqil "ы" va "i" fonemalaridan iborat. G'. Abdurahmonov va boshqalarning "O'zbek tilinig tarixiy grammatikasi"da bu ikkalasiga quyidagicha fikr bildirilgan: **I** unlisi o'rxun va uyg'ur xatida maxsus harflar bilan berilgan, arab xatidagi yozma obidalarda yo, alif ba'zan alif kasra orqali bitilgan; orqa qator lablanmagan tor; **I** unlisi qattiq aytiluvchi turkiy so'zlarning barcha o'rinlarida

---

<sup>2</sup> Abdurahmonov G'. va boshqalar. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, -Toshkent, 2008, 46-bet.

<sup>3</sup> Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси.-Тошкент, 1992, 16-бет.

uchraydi, qattiq talaffuzli unli va undoshlar bilan birga keladi: *tdmts- yuborgan, yltsg'aru-o'rmonga, yltta- yilda*.

**I unlisi** eski o'zbek tili yozma manbalarida qattiq aytiluvchi turkiy so'zlarda saqlangan: *qtn; qayst; qtrq*. **I** hamda **i** tovushlarida vazn talabi, tarixiy dialektal xususiyatlar orqali birikuv hodisasi yuz berib, o'zlashgan so'zlarda oraliq talaffuz paydo bo'la boshlagan: *tartqat // tariqat, haqtqat // haqiqat*. **I** unlisi o'rxun va uyg'ur yozuvlarida esa maxsus harflar orqali ifodalangan, arab yozuvidagi yozma obidalarda alifyo, yo, ba'zan alif kasra orqali bitilgan. Bu old qator lablanmagan tor tovush, yumshoq aytiluvchi turkiy so'zlarning barcha o'rinlarida keladi: *ichräki- qaram, bilsär-bilsa, iglä - kasal bo'l, bÖri -bo'ri, isig-issiq*. Tarkibida **k, g** tovushlari qo'llangan o'zlashgan so'zlarda **í** unlisi yumshoq aytilishga moyil bo'lgan: *kibr, ikräm- ikrom; kilid-kalit*.

**E fonemasi** turkiy so'zlarda faqat birinchi bo'g'inda uchrasa ham, XV asr o'zbek adabiy tilidagi *hamesha, andesha* kabi tojik so'zlarida keying bo'g'inlarida ham uchraydi.

**o fonemasi** XV asr o'zbek adabiy tilida tojik tilidan o'tgan so'zlar tufayli paydo bo'ldi. Bu davrda ba'zi turkiy so'zlardagi "a" ning "o" ga tomon siljiy boshlagan. **ä** fonema qadimgi turk tilidagi til oldi "ə" sining torayishi natijasida vujudga kelgan, qadimgi turk tilidagi *kəldi, səkiz, ər* kabi so'zlarning hammasida birinchi bo'g'indagi **ə**, XV asrda **e** ga aylanganini ko'ramiz.

**E** turkiy so'zlarning affikslarida saqlangan bo'lsa ham, turkiy so'zlar uchun fonemaning kuchli pozitsiyasi o'zak, ya'ni birinchi bo'g'in hisoblanganligi uchun, uni **a** tovushining variant deb hisoblash kerak.

**ä** unlisi o'rxun va uyg'ur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda alif, fatha, ba'zan hoyi havvaz orqali ifodalangan. Bu old qator lablanmagan keng tovush qadimgiturkiy til yozma obidalarida turkiy so'zlarning barchasi pozitsiyasida; eski turkiy hamda eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida birinchi bo'g'indan keying pozitsiyalarda uchraydi. **Ä** unlisi barcha davrlarga oid

yozma manbalarda yumshoq talaffuzli soʻzlar bilan birga keladi: *ädgü- ezgu; yär-yer; birgäru-janub; ärdemlig-fazilatli; ekägun-ikkovi*.

Arab, fors-tojik tillaridan oʻzlashgan soʻzlar tarkibida ochiq keng lablanmagan *ā* unlisi qoʻllangan: *āftāb, āsmān, ālim, ulamā*.

*e* **unlisi** eski turkiyga xos boʻlib, uygʻur va arab yozuvlarida alif-u yo harflari bilan ifodalangan, old qator lablanmagan toʻliqsiz keng tovush, turkiy soʻzlarning kuchli holatda, yaʼni birinchi boʻgʻinda mavjud. *e* unlisi yumshoq aytiluvchi soʻzlar tarkibida uchraydi: *menzät-oʻxshat; etmäk- non; erigsük-qoʻrqmas*.

**Ö** unlisi oʻrxun va uygʻur yozuvlarida maxsus harflari bilan yozilgan, arab xati bilan bitilgan manbalarda alif vov, vov, damma, baʼzan alif damma orqali ifodalangan, qadimgi turkiy yozma manbalarda old qator lablangan keng tovush, XI-XIX asr yozma obidalarida old qator lablangan, oʻrta keng unli; turkiy soʻzlarning asosiy holatida uchraydi: *Өhre- sharqqa; kӨk- koʻk*. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **Ө** unlisi hamda o tovushi yozuvda farqlanmasa ham, talaffuzda oʻz oʻz oʻrni bor.

**U** unlisi oʻrxun va uygʻur yozuvlarida maxsus harflar bilan ifodalangan, arab yozuvidagi obidalarda alif damma, alif vov, vov hamda damma orqali ifodalangan; orqa qator lablangan tor tovush, turkiy soʻzlarning barcha pozitsiyalarida uchraydi; qattiq aytiluvchi unli va undoshlar, uygʻunlashuvchi (indiferent) undoshlar asosida tuzilgan soʻzlar tarkibida keladi: *ulgʻartdim- ulgʻaytirdim; urttm- yozdim*. Hozirgi oʻzbek tili shevalarida ham **u** unlisining talaffuzi bir guruh soʻzlarda saqlangan. Oʻzbek adabiy tilida *bu, u, ur, urugʻI, urgʻu, orun, qavurma, qavun, quvur* kabi soʻzlarda **u** unlisi qattiq talaffuz etiladi; *uzum, butun, tuz, tutun* kabi soʻzlarda *ü* unlisi va *u* tovushi birikuv hodisasiga uchrab, uygʻunlashgan holatda talaffuz qilinmoqda.

**Ü** unlisi oʻrxun va uygʻur yozuvlarida maxsus harflar bilan yozilgan, arab xatidagi yozma yodgorliklarda alif vov, vov, damma, baʼzan alif damma orqali ifodalangan; old qator lablangan tor tovush, turkiy soʻzlarning barcha holatlarida,

yumshoq talafuzli unli va undoshlar hamda shaklan uyg'unlashuvchi undoshlar bilan birga keladi: *sü-qo'shin; ilgärü- oldinda, üch-uch; tükäti-tugal*. Tarixiy dialectal hodisa sifatida asosiy holatda **ü** unlisi **θ** tovushi bilan ham talaffuz qilingan: *ünüp// θnüp-unub; üküş// θküş-k'op*.

Singarmonizm qonuni saqlangano'zbek tili shevalarida **ü** unlisi talaffuz jihatdan yozma manbalar tiliga yaqin turadi: *bütün, üchün, ülüsh, külgü*.

Undoshlar sohasida eski turkiy tilning qadimgi turkiy tildan farqi shundaki, qadimgi turkiy tilde **b, d, y, l, n, r, s, t, q, g'** undoshlari qattiqligi va yumshoqligi bilan farqlanuvchi ikkita mustaqil undosh fonemani tashkil etgan. Ularning ha biri alohida o'z harfiy ifodasiga ega bo'lgan. Qadimgi va eski turkiy tillar orasida undoshlar sohasidagi ikkinchi farq eski turkiy tilda bir qator yangi undoshlarning paydo bo'lishidadir. Eski turkiy tilning ilk taraqqiyot davrlarida undagi undosh tovushlar tavsifi Mahmud Koshg'ariy tomonidan berilgan edi.

XI asr adabiy tiliga xos bo'lgan undoshlar jarangli –jarangsiz juftlar ( **b, p, v, f, d, t, g', q, k, j, sh, z, s, j, ch** ), sonrlar ( **m, n, l, r, y** ), jarangsiz juftiga ega bo'lmagan **h, x**, arabcha so'zlardagina uchraydigan **'** dan iborat. Talaffuz usuliga ko'ra bu tovushlar portlovchilar ( **z, p, d, t, g, k, j, ch** ); sirg'aluvchilarga ( **v, v̇, f, z, ž, s, sh, y, x, h, g'** ), portlovchi-sirg'aluvchilar ( **m, n, l, r** )ga bo'linadi. <sup>4</sup>

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra bu undoshlar quyidagicha: bo'g'iz- **'**, **h, x** ; til orqa- **g', g, k, k**; til o'rta: **n, y**; til oldi: **j-ch, j-sh, z-s, d-t, n, l, r**; lab undoshlari: **m-b- n, v- v- f**.

Navoiy tilida 25 ta undosh fonema bor: **b, p, f, v, m, t, d, z, s, n, l, r, sh, j, dj, ch, k, g, q, g', ng, l, x, h, '**.<sup>5</sup>

**B fonemasi** lab-lab, portlovchi jarangli undoshdir, so'z boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham uchraydi: *bel, besh, bog', ibo, tob*.

*Ul quyash-kim arabqa berding zany*

*Ul sifat-kim arab bashi uza ayn.*

<sup>4</sup> Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси.-Тошкент, 1992, 61-бет.

<sup>5</sup> Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1984, 16-бет.

**P fonemasi** lab-lab, portlovchi, jarangsiz undoshdir, soʻzning hamma pozitsiyalarida uchraydi: *pichaq, arpa, kiprik*. Navoiy tilida baʼzi soʻzlarda turkiy **p** **f** ga aylangan: *tupraq – tufraq, yaproq – yafroq*.

**F fonemasi** lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undoshdir. Bu tovush eski oʻzbek tilida arab va fors tillarining, fors tillarida esa arab tillarining taʼsirida paydo boʻlgan. “**f**” lablangan unlilar bilan yondosh kelganda, shu unlilar taʼsida lab-lab **f** si kabi talaffuz etilgan: *sufiy, fusun, fuzun*.

**V fonemasi** lab-lab, sirgʻaluvchi, jarangli fonema. Devonda **v** soʻz boshida uchramaydi. Navoiy tilida esa arab va fors soʻzlari hisobiga soʻz boshida ham uchraydi: *vatan, va, vaqt*. Boshqa pozitsiyalarda oʻzbek soʻzlarida ham uchraydi: *tavuq, qavmaq, birav, qirav*.

**M fonemasi** lab-lab, burun, portlovchi sonor tovushdir, hamma pozitsiyalarda keladi: *maktub, may, hammom, ham, dam*.

**T fonemasi** til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh boʻlib, palatal va velyar variantlarga ega, old qator unlilari bilan yondosh kelganda, yumshoq oʻzakli soʻzlarda yumshoq talaffuz qilinadi: *et, ket, yetti*.

Orqa qator unlilar bilan yondosh kelganda qattiq oʻzakli soʻzlarda qattiq talaffuz qilinadi: *tash, taq*.

**D fonemasi** til oldi portlovchi, jarangli undosh tovush boʻlib, hamma pozitsiyalarda uchraydi: *devon, idish, baland*. Soʻz oxirida **d** faqat arab va fors tillarida uchraydi. **D** ham *dedi, devor* kabi soʻzlarda old qator unlilar bilan yondosh kelganda yumshoq, *dard, baland* kabi soʻzlarda qattiq talaffuz qilingan. Baʼzi soʻzlarda soʻz oxiridagi **d** oʻrnida hozirgi zamon oʻzbek tilida **z** tovushi uchraydi: *gunbad – gʻunbaz, ustod – ustoz*.

**S fonemasi** til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh boʻlib, soʻz boshida ham, soʻz oʻrtasida ham, soʻz oxirida ham keladi: *sarigʻ, asra, bas, osmon*. Old qator unlilar bilan yondosh kelganda yumshoq, orqa qator unlilar bilan yondosh kelganda qattiq talaffuz qilingan. Bu tovush hozirgi oʻzbek shevalarida **ch** tovushidan oldin kelganda regrissiv assimilitsiya yuz berib **ch** ga aylangan. Baʼzi

so'zlarda Navoiy tilidagi so'z boshidagi **s** hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ham **ch** ga aylanganini ko'ramiz.

**Z fonemasi** til oldi sirg'aluvchi jarangli fonema bo'lib, so'z boshida o'zlashtirilgan so'zlarda, so'z o'rtasida va oxirida, o'zbek so'zlarida ham uchraydi: *zulm, zar, qizil, qazan, kʒz, tyz*. Bu fonema ham palatal va velyar variantlarga ega.

**Sh fonemasi** til oldi, sirg'aluvchi jarangsiz undosh tovush bo'lib, arab va fors so'zlarida so'z boshida, o'zbek so'zlarida so'z o'rtasi va oxirida ham uchraydi: *shoh, sharob, tash, tysh, qush*. Bu fonema ham palatal va velyar variantlarga ega: *bash, kishi* kabi so'zlarda old qator unlilar bilan yondosh kelganda yumshoq; *qush, tash* kabi so'zlarda orqa qator unlilar bilan yondosh kelganda qattiq talaffuzga ega bo'lgan.

**dj fonemasi** til oldi sirg'aluvchi, jarangli undosh bo'lib, *ajdar, mijgon, jola* kabi tojik tilidan kirgan so'zlardagina uchraydi. Hozirgi zamon o'zbek tilida mazkur so'zlardagi **j dj** ga aylangan. Bu tovushning palatal varianti yo'q.

**Ch fonemasi** til oldi, affrikativ jarangsiz undosh bo'lib, so'z oxirida ham, so'z o'rtasida ham, so'z oxirida ham keladi: *cherik, chehra, kych, qachan*. Ch fonemasi palatal va velyar variantlarga ega.

**J fonemasi** til oldi, affrikativ jarangli undosh bo'lib, o'zlashtirilgan so'zlarda hamma pozitsiyalarda uchraydi: *jʊn, jahʊn, ajab, inju, xiroj*. Bu fonema palatal variantga ega emas.

**N fonemasi** til oldi, burun, portlovchi sonor tovush bo'lib, so'z boshida ham, so'z o'rtasida, so'z oxirida ham uchraydi: *nay, jʊnʊn, kʊn, fan*. Bu qo'shilganda affiks oldidagi undosh bilan qo'shib **ng** ga aylanadi: *menga, anga*.

**R fonemasi** til oldi, titroq, sonor undosh tovush bo'lgan.

**L fonemasi** til oldi, yon, sirg'aluvchi, sonor tovush bo'lib, so'z boshida faqat o'zlashtirilgan so'zlarda, so'z o'rtasi va oxirida o'zbek so'zlarida ham uchraydi: *lʊla, lozim, lol, ilm*. Bu fonema palatal va velyar variantlarga ega. **L** fonemasi *bel, til* kabi so'zlarda old qator unlilar bilan yondosh kelganda yumshoq va *qal, lola* kabi so'zlarda qattiq talaffuz qilingan. L ning qattiq yoki

yumshoq talaffuzga ega bo'lganligini biz, masalan, l bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan qo'shimchalar orqali bilishimiz mumkin. L old qator unlilar bilan yondosh kelganda qo'shimchaning yumshoq variant, orqa qator unlilar bilan yondosh kelganda qattiq variant qo'shiladi: *elga-aqlg'a, elimga-xaylig'a*.

**Y fonemasi** til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lib, hamma so'zlarda, soz o'rtasida va oxirida, o'zbek so'zlarida ham uchraydi. Bu fonema palatal va velyar variantlarga ega: *tyrk, ber, ter* kabi old qator unlili so'zlarda yumshoq va *bör, qara, tur* kabi orqa qator unlili so'zlarda qattiq talaffuzga ega. Navoiy tilidagi *qarar, sarg'ar* kabi so'zlar oxiridagi r hozirgi zamon o'zbek tilida dissimilatsiyaga uchrab, y ga aylangan: *qoray, sarg'ay*. Bu fonema ham palatal va velyar variantlarga ega bo'lib, "y" *yer, yeti* kabi so'zlarda yumshoq, *yag', ayvön* kabi qattiq o'zakli so'zlarda qattiq talaffuzga ega.

**Ng fonemasi** til orqa, burun, yumuq sonor undosh bo'lib, so'z boshida mutlaqo uchramaydi. So'z o'rtasida turkiy so'zlarda, so'z oxirida turkiy va tojik so'zlarida ham uchraydi: *tengiz, mengiz, chang, rang*. Bu fonema sayoz va chuqur til orqa variantlariga ega. *Chang, ongay* kabi qattiq so'zlarda orqa qator unlilar bilan yondosh kelganda chuqur til orqa undoshi kabi talaffuz qilinadi va *teng, meng* kabi so'zlarda old qator unlilar bilan yondosh kelganda sayoz til orqa variant ba'zan **n** va **g'** ning qo'shilishi natijasida va sayoz til orqa variant **n** va **g** ning qo'shilishi oqibatida hosil bo'ladi.

**K fonemasi** til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh bo'lib, hamma pozitsiyalarda uchraydi: *ket, kekys, kÖz, eshak, bebök*. **K** bilan **q** tovushlari qadimgi davrlarda bir fonemaning ikki variant sifatida o'qilgan. Chunki turkiy so'zlarda **k** faqat old qator unlilar bilan, **q** esa faqat orqa qator unlilar bilan yondosh keladi, ya'ni so'zda **k** yoki **q** ning kelishi ma'no bilan emas, pozitsiya bilan bog'liq. Shuning uchun ham **t, s** fonemalarning palatal va velyar variantlarini va **ng** fonemasining sayoz til orqa va chuqur til orqa variantlarini ham alohida fonema deya olmaganimizdek, **k** bilan **q** ni ham qadimgi davr uchun alohida ikki fonema deya olmaymiz. Turkiy so'zlar oxiridagi **k** unli yoki sonor undosh bilan boshlangan affiks va enklitikalar oldida jaranglilashib, **g** ga aylanishi mumkin.

**Q fonemasi** chuqur til orqa portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, Navoiy tilidagi **q** fonemasi qadimgi turkiy tilidagi bir **k (q)** fonemasining divergensiyasi natijasida vujudga kelgan fonemadir. **Q** fonemasi so'z boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kela oladi: *qara, toquz, maqom, toq*. **Q** tojik so'zlarida uchramaydi, turkiy so'zlar oxiridagi q unli yoki sonor undoshlar bilan boshlangan qo'shimchalar, enklitikalar oldida jaranglashib, **g'** ga aylanish hollari ham uchraydi. Poeziyada so'z oxiridagi q qofiya talabi bilan **g'** ga aylanishi mumkin.

**G fonemasi** til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, hamma pozitsiyalarda uchraydi: *g'ozal, agar, egarchi, teg*. **G** fonemasi ham xuddi **k** va **g** fonemalari kabi qadimgi turk tilidagi **g (g')** fonemasining divergensiyasi natijasida mustaqil fonemaga aylangan tovushdir.

**G' fonemasi** chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lib, hamma pozitsiyalarda uchraydi: *g'ofil, g'ari:b, dag'I, yag'I, dimog'*.

**X fonemasi** chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush bo'lib, hamma pozitsiyaalarda uchraydi: *xatun, yaxshi, baxt, taxt, shox*. Bu fonema o'zbek so'zlarining oxirida uchraydi. A. M. Shcherbak bu undoshni eski o'zbek tilida shartli ravishdagina bor deydi.<sup>6</sup>

**H fonemasi** bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh bo'lib, Navoiy tilida tojik va arab so'zlari hisobiga so'zning hamma pozitsiyalarida uchraydi: *hamma, har, rahmat, tuhmat, shoh, oqoh*.

**Singarmonizm** hodisasi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, u tovushlar ohangdoshligi, uyg'unligi, mosloshuvidir. Singarmonizm hodisasi unlilardagi til oraliq va til oldilik hamda lablanganlik va lablanmaganlikka bog'liq. Lekin singarmonizm hodisasi bu bilan tugamaydi. Lablanganlik, ya'ni lab uyg'unligi faqat unlilarga xos hodisa. Ammo tanglay uyg'unligi qonuniyatiga binoan, tovushlardagi til orqalik va til oldilik xususiyati hisobga olinadi. Bunday ajralish nafaqat unli tovushlarda, balki tilimiz tarixida undoshlar ham mavjud bo'lgan. Hatto qadimgi turkiy – Urxun-Enasoy alifbosida juft undosh tovushlarning til orqa

---

<sup>6</sup> Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1984, 25-бет.

va til oldi variantlari uchun alohida-alohida belgilar qabul qilingan. Albatta yozuvda til orqa undoshlari til orqa unlilari bilan, til oldi undoshlari til oldi unlilari bilan yozilgan. Bu qonuniyat umuman buzilmagan. Bundan bilishimiz mumkinki, so'zlarda nafaqat unlilar, balki undosh tovushlar mosligi ham dastlab to'liq saqlangan: *qag'anqa-xoqonga, alım-olim, qarz*.

Singarmonizm qonuniyatidagi uchinchi hodisa- bu undosh tovushlardagi jaranglilik va jarangsizlik hodisasi sanaladi. Bu hodisa ham til tarixining qadimgi davridan boshlab amal qiladi. Lekin uning turli davrida ayrim o'ziga xosliklarning bo'lishi tabiiy hol. Qadimgi turkiy til davrida singarmonizm qonuniyatining har uch jarayoni ham amalda bo'lgan va u yozuvda o'z ifodasini topgan. *Uchunch chush bashinda songushdım-men uchinchi marta Chush tepasida urishdim. Aki ulug'i atlıg' arti, bir ulugi yadag' arti- ikki bo'lagi otlik edi, bir bo'lagi piyoda edi.*

Bu o'rinda ana shuni alohida izohlash kerakki, undoshlardagi jaranglilik, jarangsizlik qonuniyatiga asosan amal qilinsa-da, ba'zan ***l, n, r*** sonor undoshlari dan so'ng qo'shimchalarning jarangsiz variant qo'shilib kelish holati ham uchraydi: *är*ti- *er*di, *t*Əpasinta-tepasida kabi. Ammo bu holat juda kam bo'lib, bunday xususiyat hozirgi turkiy tillarda, jumladan, o'zbek adabiy tilida uchramaydi.

A.M. SHcherbak eski o'zbek tili davrida birinchi tip, ya'ni tanglay uyg'unligining saqlangan va buzilgan hollari bor, ikkinchi tip, ya'ni lab uyg'unligida buzilish holati uchraydi.

A. Rustamov esa Alisher Navoiyning "Hamsa" siga asoslangan holda: "XV asr o'zbek adabiy tilida singarmonizmning har uchala qonuni, ya'ni unlilardagi tanglay uyg'unligi, lab uyg'unligi hamda undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg'unligi bor, degan xulosaga kelgan."<sup>7</sup>

Alisher Navoiy tilida qo'shimcha o'zakning xarakteriga qarab farqlanib qo'shilishini Mirzo Mehdixon ham o'zining "Sangloh" asarida maxsus ta'kidlaydi. Eski o'zbek tilida singarmonizmning tanglay va lab uyg'unligi ham, shuningdek,

---

<sup>7</sup> Тўйчибоев Б. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент, 1990, 66-бет.

undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlanish xususiyati ham amal qilgan. Ammo ayrim o'rinlarda, jumladan, ba'zi jarangli undoshlardan va unlilardan so'ng jaranglilik xususiyati saqlanmasdan, xuddi qadimgi turkiy tillardagidek jarangsiz formaning ham qo'shilib kelish holatlari uchraydi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, til barqaror kategoriya bo'lganligi sabab bir yarim ming yildan oshiq paytdan buyon o'zbek tilining unlilar sistemasidagi fonemalar deyarli qo'llanilib kelinmoqda. Ayni paytda ijtimioy hodisa sifatida tildagi unli fonemalar sifatida va sonida ham qisman o'zgarishlar ham tabiiy holda ro'y berdi.

Tilning tarixi, shubhasiz, ma'lum darajada xalqning tarixidir. Chunki tilni xalq yaratadi. Xalqning tarixida bo'ladigan o'zgarish uning tilida ham o'z aksini topadi. Shuning uchun tilning tarixini o'rganganda, xalqning tarixi bilan bog'lab o'rganish zarur. Bu holat o'zbek tilining fonetik sistemasiga arab, fors, qardosh tojik, keyinchalik esa rus tilining ta'sirida ham seziladi.

Undoshlar tizimida ham xuddi unlilardagi kabi, bir tomondan umumturkiy tildagi umumiylik saqlangan. Ya'ni qadimgi turkiy tilda qo'llanilgan undosh tovushlarning asosiy qismi hozirgi boshqa turkiy tillar kabi yetib kelgan. Ammo jamiyat taraqqiyoti va uning ta'siri ma'lum darajada undosh fonemalar taraqqiyotiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Albatta, bunday o'zgarishlar bo'lishiga qo'shni xalqlarning ham ta'siri bo'lgan, masalan, fors-tojik tilidagi so'zlarning o'zlashtirilishi natijasida F fonemasi undosh fonemalarimiz qatoriga kirib kelgan. Ana shunday taraqqiyot natijalaridan yana biri shundaki, qadimgi turkiy tilda ba'zi bir undosh tovushlar so'z boshida kelmagan bo'lsa, tilimiz tarixining keying bosqichlarida so'z boshida ham kela olgan. Qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tilida ba'zi jarangli undosh va unlidan so'ng qo'shimchaning jarangsiz formasining ham qo'shilib kelish holatini uchratsak-da, hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday holat umuman uchramasligiga guvoh bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Каримов И. А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: «Шарк», 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2008. – 176 b.
3. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.- Toshkent, 2008. -527 b.
4. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: «Фан», 1984. – 159 б.
5. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1989. - 157 б.
6. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1982. -168 б.
7. Махмудов Қ. Алишер Навоий асарларида ундош товушлар уйғунлиги// “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 2001. № 4.-33-35 б.
8. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. - Тошкент: «Ўқитувчи», 1992. - 92 б.
9. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. –Toshkent, 2009. – 224 b.
10. Тўйчибоев Б. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. Тошкент: «Ўқитувчи», 1990. - 75 б.